

XALQ AMALIY SAN'ATI VA DIZAYN

kat.o'qit. A.B. Kasimova, talaba L. Buzrukhodjayeva
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Ushbu maqolada xalq amaliy san'ati turlarining dizayn sohasidagi roli, hamda uning interyer va kostyum dizayni sohalarida qo'llanilishi ko'rib chiqildi.

В данной статье рассмотрена роль, а также применение прикладного искусства в дизайне интерьера и костюма.

In this Article have been observed Tendency, of practical in creative work in art interior suit of dizayn.

Amaliy san'at - bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qiymati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi Amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir [1].

Amaliy san'at da narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi: 1) shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qiymati oshiriladi; 2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum Amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to'r; gilam, mato gullari va h.k.). Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi [2].

Xalq amaliy san'ati va uning turlari. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan turlari bular ganchkorlik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, savatchilik, do'ppido'zlik, kulolchilik va boshqa turlari mavjud bo'lib, o'ziga

xos bajarish texnologiyalari, usullariga qarab turli xil yo'nalishlar va maktablarga bo'lingan. Xalq amaliy san'atining o'ziga xos xususiyati shundaki undagi har bir tur va yo'nalish avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadi va har bir ijod maktabining o'ziga xos ramziy ma'nolarni anglatuvchi belgilari mavjud.

Amaliy san'at turlarining dizayn sohasidagi o'rni. "Dizayn" so'zi italyancha "design" so'zidan olingan bo'lib, Renesans davrida loyiha, surat shuningdek asosiy ish g'oyasi degan ma'nolarni anglatgan. Keyinchalik XVI-asrda Angliyada designo tushunchasi paydo bo'ldi, bizning kunimizga qadar etib keldi va rus tilida chizma, bezak, shuningdek loyihalash va yaratish ma'nosini anglatadi. XV-asrda minyatura va kitobot san'ati, naqqoshlik kabi san'at sohalari O'zbekistondan boshlanib XIX-asr oxirida "Hunarmandchilikning san'at bilan aloqasi me'moriy koshinkorlik, o'ymakorlik, kandakorlik xalq hunarmandchiligi san'atlari" degan mashhur harakatlar qisman olib borilgan, uning yo'l boshchilari mashhur ustalar, badiiy buyumlar ijodkorlari bo'lishgan. Xalq amaliy san'ati har bir soha dizayni bilan chambarchas bog'liq. Chunki, biror bir narsaning yaralishida hoh u buyum bo'lsin hoh uy bezagi yokida libos bo'lsin albatta biror bir amaliy san'at turining ishtirokini ko'rish mumkin. Shunga binoan biz amaliy san'at va dizaynni quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin: amaliy san'at va arxitektura, amaliy san'at va interyer dizayn, amaliy san'at va libos dizayni va hk. Amaliy san'atning eng yorqin namunalarini arxitektura dizaynida ko'rishimiz mumkin. Hozirda qurilayotgan yangi bino va inshootlarning bezalish jarayonida amaliy san'atning ganchkorlik, o'ymakorlik, naqqoshlik turlaridan ulkan mahorat bilan foydalanilayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu yo'nalishda nafaqat milliy-an'anaviy balki jahon dizayn maktablari uslublaridan ham foydalanilmoqda (1-rasm).



1-rasm



2-rasm

Ichki bezaklar yani interyer dizayn sohasida ham amaliy san'at bezaklarining yorqin namunalarini ko'rishimiz mumkin. Bu turda ayrim hollarda bezaklar haqiqiy tarixiy shaklda berilsa bazi hollarda zamonaviy ko'rinish usulida ham amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin. Zamon talabiga binoan hozirda barcha bezaklar aynan qo'lda yaratilshi yaniki haqiqiy amaliy san'at uslubida olib borilshi urf bo'lmoqda (2-rasm).

Albatta amaliy san'at va dizayn uyg'unligini biz eng ko'p hollarda kostum

dizayni sohasida ko'rishimiz mumkin. Chunki ko'pchilik mashxur dizaynerlarning ijod manbalari aynan amaliy san'at namunalri bo'lmoqda. Bunday ijod manbalariga biz zardo'zlik, kashtachilik, gilamdo'zlik va naqsh san'atlarini misol keltirishimiz mumkin. Hozirda dizaynerlar o'z kolleksiyalarida aynan qo'l mehnatidan ko'proq foydalanishga va albatta milliy an'analarni yanada yuksaltirishga harakat qilmoqdalar. Nafaqat o'zbek dizaynerlari balki jahonning eng mashxur dizaynerlari kolleksiyalarida ham amaliy san'at bezaklarini hamda milliy matolarni ko'rishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm.

Bundan tashqari yuqorida aytib o'tkanimizdek chet el dizaynerlarining ham kolleksiyalarida aynan xalq amaliy san'atidan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Quyida rossiyalik mashxur dizayner Vicheslav Zaytsev ning kolleksiyasiga nazar tashlasak, unda milliy hunarmandchilikning kashtachilik va zardo'zlik turlaridan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm.

Mashhur dizayner V.Zaytsev fikricha, modelerlar o'z faoliyatida yangi mavzular-tarixga, xalq madaniyatiga, sandiqlarda changib yotgan bebaho milliy kiyim namunalariga, taqinchoqlariga murojaat qilib kelmoqdalar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-tom. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000 y.
2. Liu, Ying; Liu, Lin; Huang, Yihan //Roles of Local Folk Art Resources in Art Design Teaching// Agro food Industry HI-TECH Tom: 28 Выпуск:3